



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

RUDAKIY ADABIY-ESTETIK QARASHLARI VA LIRIK QAHRAMON KECHINMALARI

Islamjan Yakubov,

ToshDO‘TAU professori, f.f.d.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/YWRW5196

Annotatsiya. Ushbu maqolada fors-tojik adabiyotining genial shoiri – Abu Abdullo Rudakiyning dunyoqarashi, adabiy-estetik olami va lirik qahramoni tabiatiga xos xususiyatlar shoirning muhiti, adabiy an’anaga munosabati, ijodiy ta’sirlanishi, izdoshlik va poetik o’ziga xoslik muammolari bilan chambarchas bog‘liqlikda tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: *dunyoqarash, adabiy muhit, adabiy-estetik tafakkur, lirik qahramon, adabiy an’ana, ijodiy izdoshlik, poetik individuallik, badiiy mahorat.*

Abstract. The article analyzes the worldview, literary and aesthetic world and characteristics of the lyrical hero, the brilliant poet of Persian-Tajik literature Abu Abdullo Rudaki in close connection with the problems of the poet’s environment, attitude to literary tradition, creative influences, continuity and poetic originality.

Keywords: *worldview, literary environment, literary and aesthetic thinking, lyrical hero, literary tradition, creative teaching, poetic individuality, artistic skill.*

Fors-tojik adabiyotining genial shoiri – Abu Abdullo Ja’far (binni Muhammad binni Abdurahmon binni Odam) Rudakiy (858-941) Markaziy Osiyo xalqlari, insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida munosib o‘rin tutadi [Айни, 1959; Айний, 1967; Шомухамедов, 1963; Шомухамедов, 1984; Тагирджанов, 1968; Талман, 1965; Жомий, 1997; Очилов, 2004: 382–383]. O‘z davrining barcha fanlari, ayniqsa til, adabiyot, falsafa, mantiq va musiqani chuqur o‘rgangan Rudakiyning bilim doirasi g‘oyatda teran, ifoda qamrovi keng, tili sodda va rang-barangdir. U shaxs sifatida qalbining go‘zalligi, oddiy va kamtarinligi, jo‘shqinligi, badihago‘ylik hofizasi yuksakligi bilan ajralib turadi. Xalq tili, qo‘shiq va afsonalari bilan bir qatorda arab hamda hind adabiyotiga xos manbalarni ham o‘zlashtirgan Rudakiy san’at hamda adabiyot taraqqiyoti yo‘lida faol ijod qildigina emas, qadimiy madaniy an’analarni tiklash va rivojlantirishga ilmiy-adabiy kuchlarni-da safarbar eta oldi [Бертельс, 1960; Брагинский, 1989; Мирзоев, 1968; Мирзо-заде, 1958; Тагирджанов, 1968; Чалисова, 2015: 744]. Zotan u Ma’rufiy Balxiy ta’biri bilan aytganda, o‘z davrida “shoirlar ustodi”, Nizomiy Aruziy ta’biricha: “shoirlar podshosi”, Rashidi Samarqandiy ta’rificha esa: “jahon she’riyatiga boshliq va shoirlarga bosh” [Рудакий, 1957: 11–13; 26] edi.

Rudakiy “fotimiylik” g‘oyalariga xayrihoh bo‘lgan. Uning fotimiylikka ixlosi aslida fotimiylar xalifaligining diniy va dunyoviy intilishlari bilan bog‘liq bo‘lsa ajab emas. Mazkur g‘oyaning nomlanishi Yaqin Sharqda hukmronlik qilgan ismoiliy xalifalari sulolasi – fotimiylar bilan bog‘liq bo‘lib, ular nasablari jihatidan Muhammad (s.a.v.) ning qizlari Fotimaga borib taqaladi.

XI asr boshlarida Qohirada “Dor ul Hikma” (“Bilimlar uyi”) shakllangan. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Muhammad at-Termiziy, Abu Nasr al-Farobiy, Yaqub al-Kindiy, Ibn al-Haysam, as-Sadafiy, Ibn Ridvon, Abu Xotim ar-Roziy, Homidaddin Kirmoniy singari qomusiy allomalarning hayoti va faoliyati mazkur ulug‘ dorgoh bilan bog‘langanining o‘ziyoq fotimiylar xalifaligida ilm-fanga bo‘lgan e’tibor haqida yetarlicha tasavvurlar bera oladi. Ilm-fanning ko‘plab tarmoqlari taraqqiy etishiga xayrihohlik Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Suriya (Falastin bilan), G‘arbiy Arabiston (Hijoz, Yaman) ni qamrab olgan fotimiylar markazlashgan harbiy-teokratik davlati (909–1171) da xristianlar va yahudiylarga nisbatan ham diniy bag‘rikenglik siyosatini olib borishga zamin yaratgan edi.

Nazarimizda, bunday g‘oyalar Rudakiyda o‘z davrining yirik siyosiy arbobi, madaniyat va san‘at homiysi – Amir Nasr Somoniyning vaziri Abulfazl Bal‘amiy ta‘sirida shakllangan. Keyinchalik ular o‘rtasidagi do‘stlik rishtalari g‘oyaviy safdoshlikkacha yuksalgan ko‘rinadi. Zotan, vazirning saroydan quvilishi hodisasi Rudakiyni ham chetlab o‘tmagan. Chamasi, Rudakiy keksalik yoshiga yetganida Amir Nasr Somoniy saroyida sog‘lom kuchlar, xususan fotimiylikka ko‘ngil bergan kishilarni siqib qo‘yuvchi, quvg‘in va qatog‘on vaziyati vujudga kelgan. Rudakiy bir baytida:

*Ko‘ngilda Haydarga ishq bor kishi
Har ikki dunyoda izzatda bo‘lur.*

degan satrlarni bitib, o‘zining xalifa Ali ibn Abu Tolibga ishq bisyorligini bayon qiladi. Bu hol shoir tarafdori bo‘lgan fotimiylik qarashlarining mazkur sulola bilan chambarchas bog‘liqligiga borib taqaladi.

Mazkur maqolada biz uchun adabiyotshunosligimizda nisbatan kam o‘rganilgan “hazor doston” – Rudakiy hikmatlarida mujassam teran tafakkur mahsuli bo‘lgan ulug‘vor ma‘nolarni yaxlit holda anglamoq muhimdir. Zotan, shoir pand-nasihatlarini so‘z qadrini ardoqlaydigan, chuqur mantiq zalvorini his etadigan ma‘rifatli insonga qaratilgan:

*To‘rt narsani berdi menga oqillarcha o‘ylamoq:
Tansihatlik, yaxshi odat, yaxshi nom, yaxshi fikr.*

Ko‘rinadiki, inson sog‘-salomatligi, qilayotgan amallari ijobiy sifatlar kasb etishi, ijtimoiy iqlimdagi mavqei yuksalishi, fikrining umuminsoniyliigi, uning tafakkur tarziga xos oqilonalik bilan chambarchas bog‘liqdir. Demak, shoir olam hodisalarini zaruriy bog‘lanish va aloqadorlikda, tartibli izchillikda anglaydi. O‘z so‘zlari bilan aytganda “oqillarcha o‘ylamoq” ya‘ni muhokamaning mantiqiy asoslanganligi, dalillarga tayanishi, ziddiyatlarni aniqlash va haqiqatni isbotlash asosiga qurilishini yoqlaydi. U hissiy bilimlarni inkor etmagan holda, inson idrokining qudratini to‘g‘ri, aniq hamda izchil fikrlashda ko‘radi. Mantiqiy tafakkur qudratining inson kamoloti jarayonidagi amaliy ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratadi. Rudakiy e‘tiqod kishisi sifatida bunday sifatlarning odamzotga Yaratgandan ato etilishi ya‘ni inson fitratida mavjud bo‘lishini e‘tirof qiladi:

*Tangri kimga qilgan bo‘lsa bu to‘rt narsani nasib,
Mangu shodlik bilan yashab, g‘am yemasa ham arzir.*

“Odamlar qalbining charog‘i” va “Balodan asranish yarog‘i” bo‘lgan ilmu-amal bebaho xazina – olam rivoji va taraqqiyot omili ekanligini ta‘kidlagan shoir umrni bilim hamda ezgu amallar bilan ziynatlashga da‘vat etadi. Shoir tushungan va anglagan go‘zallikning cho‘qqisini ideal uyg‘unlikka intilish tashkil etadi. Alloh sevgan bandalari ko‘ngliga inson imkoniyatlari va faoliyat maydonidan g‘oyatda ulug‘vor yuksaklikka ko‘targan mukammal go‘zallikka oshuftalikka intilish hissini ato etadi. Ya‘ni yaralmish mo‘jizalardan hayrat tuymoq orqali dunyoni o‘ziga xos tarzda inkishof etmoq zavqi-la siylaydi:

*Nazm qaydiga tushdim xush ovoqlikdan,
Husnim gunohi-la bo‘ldim zindonda.
Kattakon a‘yonlar bilan o‘tirdim,
Ularni sinadim ochiq, nihonda.
Ruxsatdan o‘zgani talab etmadim,
Ehsonidan qoldim men pushaymonda.*

Go‘zal qalb sohibi bo‘lgan Rudakiyning lirik qahramoni uchun a‘yonlar davrasi misoli zindon. Zotan u hayotni teran kuzatuvchigina emas, balki hayolotning besarhad kengliklari sari intiluvchi hamdir. Shu bois manfaat yuzasidangina yashovchi kimsalar davrasida u o‘zini g‘oyatda yolg‘iz sezadi. Rasmiy qoliplarga sig‘magan hayratlarining beshafqat hayot dag‘alliklari bilan to‘qnashuvidan so‘ngsiz iztirob chekadi. Chunki davrani beruxsat tark etmoq imkondan xorij.

Binobarin, u qoniqmaslik hissidan tug‘ilmish armonlar ichra o‘rtanadi. Tafakkurida charx urgan haq so‘zni baland pardalarda aytmoq istagi lirik qahramonni tinch qo‘ymaydi. Muttasil davom etgan o‘zlikni anglash iztirobi unga ma‘naviy-ruhiy kuch bag‘ishlaydi. Rudakiy bitiklarida ro‘yi-rost aks etgan o‘sha og‘riqli jarayonning xush ifodalari shoir iste‘dodining darajasi va qudratidan darak beradi. Zotan, shoir olam ahliga xos ochko‘zlik, xasislik yo‘lidagi turfa evrilishlar ildizini ta‘magirlikda ko‘radi:

*Dunyodan ta‘mani uzgan chog‘ingda,
Bilursan jahonni butkul karim deb.*

Demak, jahonga mehr va sahovat nazari bilan boqmoq uchun ko‘ngil ta‘madan xoli bo‘lmog‘i lozim. Bunga ilm-ma‘rifat orqali erishilishini yaxshi anglagan shoir pand-nasihatu hayot ibratini uqtirishdan charchamaydi:

*O‘z nafsini mag‘lub etolgan marddir,
G‘iybatdan uzoq-uzoq ketolgan marddir.
Nomard tepib o‘tar yiqilganlarni,
Ojiz kishilar qo‘lin tutolgan marddir.*

Ko‘rinadiki, inson ruhiy-ma‘naviy kamoloti haqidagi fikr-qarashlarida Rudakiy odam bolasini o‘zini qayta qurish uchun real imkoniyatlarga ega bo‘lgan bunyodkor sifatida talqin qiladi. Shu bois, inson o‘z-o‘zini anglashida xushyorlik, aql-farosat va intuitiv tafakkurni muhim sanagan shoir ruhiy holatlarga xos komillik hamda ma‘naviy yetuklik darajasini tadqiq etadi. Parhez – nojo‘ya amallardan tiyilmoq, ya‘ni nafsni mag‘lub etib, g‘iybatdan yiroqlashmoq, shuningdek qanoat, sabr, rizo, umrni behuda ishlarga sarf qilmaslik o‘z-o‘zini tarbiyalovchi insonning ma‘naviy qudrati nishonalari ekanini uqtiradi.

Faqat yaxshilikni o‘ylab umrni ojizu notavonlar xizmatiga bag‘ishlash, pirovardida ezgu xulq-atvoriga ega bo‘lmoqdir. Rudakiy borini o‘zgalar bilan baham ko‘rish, muhtojlarni himoya qilishni yoqlaydi. Bu esa, shoir beta‘ma marhamat, shafqat, muruvvat, sahovat tushunchalarini hayotiy prinsip darajasiga ko‘targanligini ko‘rsatadi:

*Badbaxt erur kimki, bermas ham yemas,
Yeb ham ehson qilsa, xushbaxt umrbod.*

Bunday yuksak g‘oyalar qaysidir jihatlari bilan Najmiddin Kubro insonparvarlik qarashlarini [Хайруллаев, 1982; Шайх Нажмиддин Кубро, 1994], Pahlavon Mahmud javonmardlik g‘oyalarini [Ҳомидий, 1997] eslatadi. Shu ma‘noda tasavvuf olamining zabardast allomalaridan biri Ahmad ibn Umar Abul-Jannob Najm-ad din al Kubro al-Xorazmiy (1145–1221) insonparvarlik qarashlarining shakllanishida Misr va Tabrez allomalarininggina emas, balki o‘z ona Vatanining fidoyi, jasur va mard farzandi bo‘lgan Rudakiy ijodining ham ma‘naviy oziq, amaliy ibrat bo‘lganini taxmin qilish mumkin. Ehtimol, mazkur fikrni javonmardlik harakatining peshvolaridan biri Pahlavon Mahmud (1241–1326) hayoti va ijodiga nisbatan ham qo‘llash mumkindir.

Rudakiy inson zotining nazariy va amaliy faoliyati nisbati bilan qiziqar ekan, kamolotga yetmoq muttasil intilishni taqozo etishini, tajriba hayot jumboqlari yechimini topishda nihoyatda asqotishini yoqlaydi. Demak, ilmiy bilish amaliy ehtiyojlarga xizmat qilishi, inson faol ijobiy faoliyatda bo‘lishi kerak deb biladi. Bunday mukammal amaliy faoliyatni shoir “yaxshi ish” – axloq va e‘tiqod bilan chambarchas bog‘liqlikdagi maqsadga muvofiqlik, ya‘ni inson faolligining ma‘naviy asoslari ma‘nosida tushundi. Uning fikricha, amaliyot bilishning mezonigina emas, balki insonning o‘zini ham o‘zgartirish qudratiga egadir:

*Jahon daryo erur, yaxshi ishingdan,
Kema yasab o‘tgin nari tomonga.*

Shu boisdan, turmush o‘g‘itlaridan tegishli saboq chiqarish muhimligiga diqqat qaratgan shoir real dunyoning narigi tomoni, ya’ni yo‘qlik haqida ham qayg‘urarkan, individual ruhning mutlaq ruh bilan qo‘shilishi axloqiy poklik orqali kechadi,- deb biladi. Rudakiyning lirik qahramoni hayot hikmatlaridan to‘g‘ri xulosalar chiqaradi. Hasad bilan emas, havas va shukronalik tuyg‘usi bilan yashaydi:

*Dedi: o‘zdan balandroqni ko‘rib g‘am yema,
Ko‘p kishi bor, sen bo‘lishni orzu qilur.*

Chunki tiriklik – shirin tush yanglig‘ o‘tkinchi va o‘lim – haq. Bu yorug‘ olamdan foniyl dunyoga boylig‘u shohi-ipak matolar olib ketilmagay. Binobarin, unga qattiq ko‘ngil bog‘lamoq durust emas:

*Bu dunyo omonat, hammamiz mehmon,
Xasislarcha ko‘ngil bog‘lamoq xato.*

Keksalik chog‘ida shoir: “Yana qadam qo‘ydim yigitlik sari” misrasini bitadi. Chunki Rudakiy dunyoni “ikki eshikli quruq bir tolzor”, - deb biladi. Dil oromini ilmu donishda ko‘rgani uchun olamni odamdan yuksak sanaydi. Inson hamisha o‘rganishga muhtoj. Uning umri rohatu kulfat almashinuviga guvoh. Taqdirga tadbir yo‘q deb hisoblaydi. Shuning uchun anduhdan ozod, shod-xurram, ko‘ngil xotirjamligini tilab yashamoq lozim degan to‘xtamga keladi. Shoir Murodiy Buxoriy vafoti munosabati bilan bitgan marsiyasida: “Bunchalik ulug‘ning o‘lmog‘i qiyin”, - deb yozgan Rudakiy umr mazmunini yillar sanog‘i bilan emas, balki inson bilimining darajasi bilan belgilaydi. “Azadorga” nomli qasidasida esa, insonga umr faqat bir marta ato etilishi, nola-fig‘on bilan o‘tganni qaytarib bo‘lmasligi ta’kidlanadi. Falakning balo-ofatlariga bardosh qilmoq xushyor va fozil kishilarga xos ulug‘vorlik sanaladi.

Rudakiy tizimlarning yaxlitligi, bir butunligi va o‘zaro bog‘liqligini, shuningdek holatlarning tadrijiy ravishda o‘zgarishini yaxshi anglaydi. Shoir: “Ketgan ketdi, kelur keladigani”, -deya ta’kidlash orqali tizim taraqqiyotidagi nisbiy barqarorlikka ishora qiladi. Demak u borliq va uning mohiyatiga xos taraqqiyot va rivojlanish bilan bog‘liq xususiyatlarni ilmiy asosda tushungan.

Shoir ijodida real maqsadga yo‘naltirilgan sharafli faoliyatgina quvonch keltirishi yoqlanadi. Haqiqat va amaliyot alohida odam manfaatlarida yaxlit holda namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi:

*Har kishi hayotdan olmasa ta‘lim,
Unga o‘rgatolmas hech bir muallim.*

Rudakiy san’atni qadriyatlar tizimi sifatida tushungani uchun shoir estetikasida sub’ektning fozilligi, xushyor hamda ulug‘vorligi darajasi uning sabr-bardoshiyu faolligi bilan bog‘lanib, qadriyatlaru axloqiy-diniy qarashlar birligida kuzatiladi. Bu jihatdan Rudakiy estetik qarashlari muayyan ma’nodagi pragmatizm [Farb falsafasi, 2004: 614–621; Falsafa, 2004: 334] estetikasiga mengzaydi.

Rudakiy olamning beqarorligi, umrning o‘tkinchiligi, o‘limning haqligini e’tirof etgan, taqdirga rizo mo‘min sifatida namoyon bo‘ladi. Bu hol uning uslubi va g‘oyasi, lirik ohangida ham bo‘y ko‘rsatadi. She’riyat orqali toshu temirga aylangan dillarga nafasat va nazokat ulasha olganidan mamnun bo‘lgan shoir:

*Harirdek nozik qildi ko‘p ko‘ngilni she‘rim,
Undan ilgari ular sangu sandon edi,*

deb yozadi. Voqelikni hissiy-ta’sirchan, emotsional o‘zlashtira olgan shoir go‘zallik va ezgulikni o‘zaro uyg‘un holda tasavvur qiladi. U estetika [Хотамов, Саримсоқов, 1983: 371–372] nafis san’atda yorqin namoyon bo‘ladi va estetik tarbiya muhim ijtimoiy-axloqiy qimmat kasb etadi deb biladi. Insonning ma’naviy-ruhiy olamidagi go‘zallikni, haqqoniylikni yoqlaydi. Demakki, umumestetik madaniyatni shakllantirishning jonkuyari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ehtiyojni

qondirish yoʻlida milliy sanʼat taraqqiyoti uchun qalam tebratganidan qoniqish, iftixor va mamnuniyat tuyadi.

Bu hol Rudakiyning voqea-hodisalarga xos estetik sifatlarni teran idrok etgan, mustaqil tarzda baholay olgan, ijod mahsullarida ifoda etgan yuksak badiiy-estetik did sohibi ekanini ham koʻrsatadi. U sheʼriyat maxsullari koʻngil va tafakkurga taʼsir etmogʻi uchun muayyan maqsadga muvofiq boʻlishi lozim deb biladi. Bu maqsad anglangandagina estetik munosabat ijobiy natija beradi. Shuning uchun ham shoir dunyoqarashida goʻzallik va xunuklik keskin qutbiy tarzda ajratiladi. Mazkur tushunchalar uning ichki dunyosi hamda idrok qilish jarayoniga singib ketib, mustahkam eʼtiqodiga aylanadi. Rudakiy ulkan hayotiy tajriba va yuksak salohiyat egasi sifatida odamzot maʼnaviy munosabatlaridagi xilma-xillikni alohida inson tuygʻular olamiga xos ingichkalikning darajasiga koʻra farqlaydi. Zotan, begʻaraz tuyilgan va anglangan adabiy hodisagina kitobxonning his-tuygʻulari va ongiga taʼsir etadi.

Koʻrinadiki, Rudakiy estetikasida masalaning subʼektiv tomoni, yaʼni estetik ong, tushuncha va his-tuygʻularning ahamiyati hamda rang-baranglik xarakteri oʻz ifodasini topgan. Estetik ong rivojiga sanʼatning taʼsir kuchi tobora ortib borishi, estetik tarbiyaning rolga ahamiyat qaratilgan.

Shoir ijodiy merosida: “Yor yodida dil figʻonga kelur”, “Qul boʻlsaydi senga Rudakiy”, “Men boʻldim bir sohib jamolga gʻulom”, “Mayxonaga et, ey buti Kashmir xirrom”, “Bir ishva birla xotirim etmish parishon, ul nigor”, “Hijroning balosi, ey sarvi ozod, Umrin tomirin ayladi barbod” kabi misralar ham uchraydiki, bu hol uning ishqiy mavzu va oshiqona ruhdagi asarlarida hijron, vafo, sadoqat kuylangani, ishq nafaqat dunyoviy, balki ilohiy mazmun-mohiyatda ham anglanganini koʻrsatadi.

Demak, Rudakiy lirik merosining tarixiy makon doirasidan chiqib, umuminsoniy mohiyat kasb etishi uning leytmotivini chuqur gumanistik pafos ifodasi tashkil etishi bilan bogʻliqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмон Жомий, Баҳористон, – Т.: 1997.
2. Айни С. Устод Рудаки. Эпоха. Жизнь. Творчество. – М.: 1959/
3. Айний С. Асарлар, 8-ж., – Т.: 1967.
4. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: 1960.
5. Брагинский И.С. Абу Абдаллах Джафар Рудаки. – М.: Наука. 1989.
6. Кубро, Шайх Нажмиддин. Жамолинг менга бас. Рубойилар. – Тошкент: 1994.
7. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille. 2015, № 07 (27). Pp. 40-43
8. Matyokubova, T., & Yakubov, I. Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews. 2021, № 7, pp. 28-37.
9. Matyokubova T. G ‘afur G ‘ulom sheʼriyatining poetik jozibasi (Shoirning “Kuzatish” va “Sog ‘inish” sheʼrlari tahlili misolida) // Uzbekistan: yozuk i kultura . 2024, № 2. – B. 88-98
10. Мирзоев А. М. Рудаки. Жизнь и творчество. – М.: Наука, 1968.
11. Мирзо-заде Х.М Рудаки – основоположник таджикской классической литературы. – М.: Знание, 1958.
12. Очилов Э. Рудакий., Ўзбекистон Миллий энциклопедияси 7-ж., – Т.: 2004, – Б: 382-383.
13. Рудаки / Чалисова Н.Ю. // Пустырник. Издательство Ленинградского государственного университета. – Румчерод. – М.: Большая российская энциклопедия, 2015. – С. 744. – Большая российская энциклопедия [в 35 т.] / гл. ред. Ю.С. Осипова, 2004 – 2017, т. 28).
14. Рудакий. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1957. – Б: 11-13, 26.
15. Тагирджанов А.Т. Рудаки. Жизнь и творчество. История изучения. Издательство Ленинградского государственного университета. 1968.

16. Талман Р.О., Юнусова А. Рудаки. Указатель литературы. – Душанбе: 1965.
17. Фалсафа комусий луғат. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, “ШАРҚ” НМАК Бош таҳририяти. – Т.: 2004. – Б:334.
18. Хайруллаев, М. М. Нажмиддин Кубро. – М.:1982.
19. Жўрақулов, У. (2023). Эзотерик тафаккур универсалияси: Навоий, Шекспир, Гёте.“ShARQ-U G‘ARB: NAVOIY VA GYOTE” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari, 2023-йил, 21-июн. Тошкент: “Nurafshon business, 8, 30.
20. Жўрақулов, У. (2015). Назарий поэтика масалалари: муаллиф. Жанр. Хронотоп. Тошкент: Фафур Фулом, 353.
21. Хотамов Н.,Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983, – Б: 371-372.
22. Шомухамедов Ш. Форс тожик адабиёти классиклари. – Т.: 1963.
23. Шомухамедов Ш. Одамийлик иншоиси, – Т.: 1984.
24. Фарб фалсафаси. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, “ШАРҚ” НМАК Бош таҳририяти. – Т.: 2004. – Б: 614-621.
25. Ҳамиджон Хомидий; Маҳмуд Ҳасаний. Машиқзамин ҳикмат бўстони. – Тошкент: “Шарқ” НМК, 1997– 251 б.
26. Yakubov Islomjon. Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125
27. Асадов М. (2023). “Ёлғизлик мотиви”нинг поэтик талқини. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari, 1(1).
28. Yoqubov I. Erkin A’zamning “Zabarjad” kinoqissasida qahramon botinidagi evrilishlar tasviri // Uzbekistan: yozuk i kultura. 2024, № 2. – В. 66-77
29. Yakubov, I. A. (2020). Poetic thought and expression possibilities in Uzbek novels. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). Индия, 217-222.
30. Yokubova S.I. Jadid she’riyatida peyzaj bilan bog‘liq poetik obrazlar tasviri // O‘zbekiston:til va madaniyat. – Toshkent. 2022, № 3. – В. 42-54.
31. Yokubova S.I. Jadid she’riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin // O‘zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent.2023, № 3. – В. 79-90.
32. Юсупова, Д. (2013). Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). Т.: Akademnashr, 11-13.
33. Mansurov S. “GULSHANI DILAFGOR” TO ‘PLAMIDAGI SHE’RLAR TASNIFI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 10. – С. 560-567.

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84

20.	Shermurod SUBHON. Kitobxon oldida mas’uliyat	97
21.	Murtazo SAYDUMAROV, Mahmudaxon SAYDUMAROVA. O‘zbek adabiyotining ilk romani tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlar va semantik o‘zgarishlar	100
22.	Mahmadiyor ASADOV. Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti	107
23.	Toshtemir ALIMOV. Gender as a linguistic and cultural parameter in literary translation	113
24.	Tozagul MATYOQUBOVA. Ilk hasbi hol qasida va uning o‘zbek tarjimoni	116
25.	Dilafruz MUHAMMADIYEVA. “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	120
26.	Umida TURAeva. Some challenges of translating forensic terminology between English and Uzbek	125
27.	Елена ПАНОВА. Мифопоэтическая традиция и проблемы перевода и функционирования онимов в волшебной повести «Алиса в стране чудес» Л. Кэрролла	128
28.	Gulnoz MAMARASULOVA. Siyosiy matn tarjimasining lingvokulturologik jihatlari	137
29.	Эльнора БАГАВОВА. Эволюция переводческих теорий: от традиционных подходов к современным тенденциям	140
30.	Dilfuza KHUDAIBERDIEVA. Translation studies: traditional and modern approaches	144
31.	Gulnoz MAMARASULOVA, Ruxshona CHO‘LIYEVA. Diplomatiik matnlarning tarjimada ifodalanishi	148
32.	Dilshod AMIRQULOV. Tarjimashunoslikda til tipologiyasi asosida komparativ yondashuv	151
33.	Tozagul NASRULLAEVA. Literary translation as interpretation: on the basis of Dreiser’s literary works	154
34.	Мохира ЭШКУВАТОВА, Достонбек АХМАДОВ. Роль лингвострановедческого компонента в обучении переводу	156
35.	Islom TURDIYEV. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim ish yuritish terminlarining tarjima talqinidagi muammolari	160
36.	Фотима УМИРЗАКОВА. Проблемы традиционных и современных подходов в немецком переводе	163
37.	Shohsanam BEKMURATOVA. Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari	166
II SHO‘BA. QIYOSIY TILSHUNOSLIK MASALALARI		
38.	Sayed Mohamed Ahmad KORAYEM. Principles for developing comparative linguistic studies	171
39.	Nedim BAKIRCI. Milli kimlik inʼsasinda halk biliminin ishlevi	183
40.	Farhad RAHIMI. Beş, bel, bilek, elik/ el ve ilik kelimelerinin etimolojik ve anlamsal bağlantilari	190

41.	Farhad RAHIMI. Nezrali'nin Çağatay türkçesi sözlüğünün yanlıslari üzerine iii	196
42.	Сырга ОРУНБАЕВА, Долон МАЛДЫБАЕВ, Сагынбек ОРУНБАЕВ, Минаим МЫРЗАКМАТОВА, Жумакадыр КАРАМОЛДОЕВ. Горы и их лингвистические особенности: типология высот и культурных различий	215
43.	Saodat MUHAMMEDOVA, Kosimboy MAMUROV. Reforming the Uzbek latin alphabet: balancing phonology and global usability	221
44.	Jamoliddin YOQUBOV. O‘zbek va fransuz tillarida “ona” leksemasi ifodalanishining lingvomadaniy xususiyatlari	223
45.	Valijon VOSITOV. Inkor kategoriyasi lingvistik voqelik sifatida	228
46.	Khushnuda SAMIGOVA. Identifying the semantic component of affectionate form	230
47.	Nargiza DOSBAYEVA. Specific features of intercultural interaction in the course of teaching foreign languages	234
48.	Наргиза РАШИДОВА. Арабские заимствования в узбекском языке	237
49.	Ulugbek KARIMOV. Evolution of the cyborg in 21st-century science fiction	240
50.	Kamola ABDULLOEVA. Diskursiv shaxsning grafik vositalar orqali aks etishi	243
51.	Malohat BADALBAYEVA. The special lexicon of emergency situations in global linguistics	246
52.	Nargiza MIRZALIYEVA. Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey hikoyalari qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari: badiiy tahlil va qiyosiy yondashuv	250
53.	Azizjon SHARIPOV. Yozma manbalarda Hirotning tarixiy toponimikasiga doir ma’lumotlar: Shohrux Mirzo davri	253
54.	Марина ИСКАКОВА. Тюркоязычный мир от древности	263
55.	Nargiza YUSUPOVA. The impact of artificial intelligence on comparative philology and translation studies	268
56.	Feruzaxon KARIMOVA. Aksiolingvistikada ma’naviy qadriyatlar talqini	272
57.	Zebiniso BEKMURADOVA. O‘zbek va fransuz maqollaridagi xiazmlarning stilistik, semantik va lingvokulturologik tahlili	276
58.	Sabohat QAHHAROVA. Yassaviy hikmatlarining lingvokulturologik tahlili	279
59.	Dildora KENJAYEVA. “Boburnoma”da antroponimlarning etimologik o‘ziga xosligi	283
60.	Gulchexra IBRAGIMOVA. Ingliz tilida abbreviatura va akronimlarning lingvistik tahlili	287
61.	Asror YUSUPOV. Lug‘at maqolasi strukturasi nazariyasining rivojlanishi	289

III SHO‘BA. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI		
62.	Islamjan YAKUBOV. Rudakiy adabiy-estetik qarashlari va lirik qahramon kechinmalari	293
63.	Islamjan YAKUBOV. Tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon	299
64.	Dilnavoz YUSUPOVA, Kemal Yavuz ATAMAN. Uch tazkira qiyosi	308
65.	Gulnoz XALLIEVA, Sitora SHAHOBOVA. “Middlemarch” va “Anna Karenina” asarlarida ayol obrazining o‘rni	316
66.	Bahodir XOLIQOV. Britaniya adabiyoti va o‘zbek mifologiyasida daydi yog‘dularning badiiy xususiyatlari	320
67.	Gulnoz XALLIYEVA, Farangizbonu ADAMOVA. “Jek Raymond” romanida Jek obrazi tahlili	323
68.	Nuriddin ALTINBOYEV. Qiyosiy tahlilda tipologiya va ta’sir fenomeni	326
69.	Gulnoz XALLIYEVA, Iroda ABDULLAYEVA. The nature of satirical characters in the works of Jonathan Swift	330
70.	Mohinur SOTVOLDIYEVA, Gulnoz KHALLIEVA. The poetics and typology of father figures in world literature: a comparative study	333
71.	Xafiza KUCHKAROVA. Badiiy adabiyotda peyzajning o‘rni	336
72.	Dilafro‘z QAHNAROVA. Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar	340
73.	Elmira HAZRATQULOVA. Temuriylar davri adabiy muhitida ustoz-shogird munosabatlari	344
74.	Тоҳир ТУРДИБОЕВ, Нигора ЖЎРАЕВА. Беҳбудий таълимотида ижтимоий-маърифий масалалар	347
75.	Ma’suma OVIDJONOVA. Ingliz va o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning narratologik asoslari	351
76.	Эльмира АДИБЕКОВА, Сўлтан САНИЯТ. Türk masallarında hayvan motifleri: geyik motifinin kültürel yansımaları	357
77.	Эльмира АДИБЕКОВА, Сая БЕРІКҚЫЗЫ. Türk-islam kimliğinin sembolü olarak Hoca Ahmet Yesevi türbesi	368
78.	Эльмира АДИБЕКОВА, Гүлнұр ЕСЕНГЕЛДІ. Karaşaş Ana türbesi ve halk inançlarında kadın Evliya imgesi	375
79.	Дильфуза МАМЕТОВА, Малика ПРИСТАЕВА. Keloğlan ile padişahın kızı masalinin Anadolu, Uygur, Gagavuz varyantlarında kahraman ideali	383
80.	Карлыгаш БОРБАСОВА, Какимжан БИШМАНОВ, Мира БАЛТЫМОВА. Сравнительный анализ текстов Корана, Библии и Торы по проблеме межрелигиозного диалога и укрепления общенационального единства	394
81.	Улжан ТУНГАТОВА, Алуа АЛШЕР. Сравнительный анализ идей толерантности в Коране и Библии	400
82.	Ляззат АЛИЕВА, Möldir NIŞANHAN. Masalların mitolojik mirası: şamanizm ve islam’ın izleri	404